

**Scientific theoretical basis of organizing corrective developmental education for children with autism syndrome**

Teshaboeva Feruza Rahimovna

Associate Professor (PhD) of the Department of Inclusive Education, KSPI,  
Uzbekistan

Usmonjonova Saodatkhan Mirzakhamdamovna  
KSPI Special pedagogy: (Oligophrenopedagogy)  
field II stage student, Uzbekistan

**Annotation:** In this article, the causes of autism syndrome in children are briefly discussed and the scientific research of foreign scientists on the organization of corrective and developmental education for children with autism syndrome, including the scientific research conducted in this field in our country.

**Key words:** autism syndrome, child, speech ability, thinking, cognitive processes, imagination, correction, training, game, preschool education, foreign studies.

Mamlakatimizda keyingi yillarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ularda o'quv-tarbiya va davolash-sog'lomlashtirish jarayonlarini tashkil qilish, alohida sharoitlarda davolanish va sog'lomlashtirishga, ta'lim va tarbiya olishga muhtoj bolalar huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan hamda sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu fikrimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi», 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida» Qonun, 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son «Nogironligi bo'lган shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlar, 2019-yil 7-sentyabrdagi PQ-4440-son «Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lган bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorlar, va sohaga oid boshqa me'yoriy huquqiy hujjalarda belgilangan keng ko'lamlı strategik chora- tadbirlarni misol kektirishimiz mumkin. Bu qarorlarning ijrosi o'laroq yurtimizda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tartibi, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ularda o'quv-tarbiya va davolash-sog'lomlashtirish jarayonlarini tashkil qilish tartibi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'lim olishda va ularni bilish

imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida ko'maklashish tartibi ishlab chiqildi.

Chetdan kuzatsangiz, ba'zi bolalarning xatti-harakatlarida, gap-so'zida g'ayritabiylik seziladi. Ularning tashqi ko'rinishi benuqson, faqat gap-so'zlarida noaniqlik, yuz ifodasida atrofga befarqlik bor. Dunyoni o'ziga xos «pushti ko'zoynak» orqali ko'radigan bunday bolalar autizm sindromiga chalingan bolalar hisoblanadi.

Autizm (grekcha «autos» – «o'zim» degan so'z) – bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bola o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqelik bilan bog'liq emas. Bunday bolalarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'proq uchraydi. Simptomlarning har xilligi va kasallik o'zgaruvchanligi ushbu kasallikni qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha.

Olimlarning fikricha, autizm kassaligini kelib chiqishiga quyidagilar:

- homilani ona qornidalik davrida ma'lum bir turdag'i oqsillarning yetishmovchiligi;
- organizmda ikki xil og'ir metalning, qo'rg'oshin va simobni, ko'payib ketishi;
- atrof muhitni ekologik buzilishi va homiladorlik paytida kuchli stress holatlarini kechirish;
- Anemiya hamda qon bosimning oshishi;
- buyrakda bosim oshishi kabilar sabab bo'lishi mumkin.

Autizmga chalingan bolalarni qanday bo'lsa, shunday qabul qilish kerak. Kattalar buni o'z vaqtida aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlashlari zarur. Autizm kasalligi homila ona qornidalik davridayoq uning bosh miyasi rivojlanishida ba'zi oqsillarning yetishmasligi sababli ham paydo bo'lishi mumkin, degan taxminlar mavjud. Bu xastalikning irlisyat bilan bog'liqligi hali to'liq o'rganilmagan. Amerikalik va fransiyalik olimlar guruhi bosh miya rivojlanishining ilk bosqichlarida hid sezishda ishtirok etadigan o'zak hujayralarni o'rganish zarur, degan xulosaga kelishdi. Chunki, burundan osonlik bilan olinadigan biopsiya surtmasi bu hujayralarni o'rganishda bebaho usul hisoblanadi. Bundan tashqari, dunyo miqyosida hozirda shu kasallik bo'yicha, autizmga chalingan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, jamoaga qo'shilib ijtimoiy muhitga moslashishi haqida ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar, eksperimentlar o'tkazishmoqda. Muammo va tadqiqotlar mavzusining ijtimoiy miqyosdagi dolzarbligi so'nggi o'n yilliklarda umumiyligi aqliy rivojlanishi buzilgan va autizm spektrining buzilishi (ASD) bo'lgan bolalar sonining sezilarli darajada ko'payishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, ushbu rivojlanish buzilishining

chastotasining o'sish ehtimoli mavjudligi, shu bilan birga, ushbu tadqiqotlar natijasida jamiyatni insonparvarlashtirish sharoitida ilgari o'qitish mumkin bo'lмаган deb hisoblangan bu bolalar ta'lim tizimiga kiritiladi va unga ozmi-ko'pmi muvaffaqiyatli moslashadi.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra autistik spektr buzilishi holati har 160 bolaning birida uchraydi va bu ko'rsatkich yildan yilga o'sib bormoqda. AQSH da bu muammo yetarlicha keng yoritilgan hamda kasallikni nazorat qilish va profilaktika markazining ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2008-yilda 125 nafar bolaga 1 nafar AASB bo'lgan bola to'g'ri kelgan bo'lsa, 2018-yilda

esa 59 boladan biriga autizm tashhisi qo'yilgan. Ushbu ko'rsatkich va uning yildan yilga o'sib borishi mumkin degan taxminlar bu kasallikni chuqurroq o'rganishga undadi. Muammo va tadqiqotlar mavzusining klinik darajadagi dolzarbliyi yaqin vaqtgacha ASD klinik muammo sifatida ko'rib chiqilganligi bilan belgilanadi. Ushbu atama, shuningdek, rus psixologiyasida disontogenezning ushbu turi bo'lgan bolalar uchun maxsus tashkillashtirilgan yordam zarurligi haqidagi fikr birinchi marta G. E. Suxarevaning "Bolalik shizoidiyasidagi autistik kasalliklar" asarlarida aytildi. ASD bilan og'rigan bolalar toifasi qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganildi, jumladan:

- xorij olimlaridan V. M. Bashina, S. A. Morozov, L. Kanner, M. Rutter, G. Asperger, F. Happe, E. Bleyler, B. Bettelheim, Baron Cohen, M.M. Bristol, L. Eyzenbergom, R.R. Fewell, C. Gillberg, K. Gilbert, S. Harris, B. Hermelin, Dj. M. Itar, M.E. Lamb, G. Mesibov, D.J. Meyer, D.T. Marsh, E. Schopler va boshqalarning tadqiqotlarida autizm sindromining kelib chiqish sabablari va autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy ishlar tadqiq qilingan.

- zamonaliviy psixologiyada ASD atamasi birinchi navbatda xorijiy mualliflar tomonidan qo'llaniladi, xususan, K. Gilberg, J.L. Ving, Y. Friz va boshqalarning asarlarida, rus psixologiya fanida bu atama D.I. Klimas kabi mualliflarning tadqiqotlarida uchraydi.

Muammo va tadqiqot mavzusining ilmiy-nazariy darajadagi dolzarbliyi ko'plab olimlarning ushbu masalaga keng qiziqishini belgilaydi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.I. Arbuzov, T.B. Andreyeva, Y.Y. Alekseyeva, V.A. Ababkov, O.B. Bogdoshina, Y.R. Bayenskaya, V.M. Bashina, A.A. Bodolev, L.I. Bojovich, M. Bouen, L.S. Vigotskiy, K. Gilbert, S.S. Galaskaya, L.Y. Gozman, Y.S. Grebelskaya, O.V. Gusayeva, D.N. Isayev, S.N. Kashtanova, I.B. Karvasarskaya, M.M. Libling, K.S. Lebedinskaya, I.Y. Levchenko, S.S. Muxinin, V.N. Myasishev, I.I. Mamaychuk, O.S. Nikolskaya, L.S. Pechnikova, T.N. Piters, P.Y. Suxareva, Y.O. Smirnova, N.V. Simashkova, V. Satir, V.V. Tkachyova, A.Y. Varga, L.B. Shnayder, T.N. Visotina, L.I. Vasserman, A.I. Zaxarov, E.G. Eydemiller va boshqalarning ilmiy izlanishlarida autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalar turlari va ularning rivojlanishidagi tibbiy-psixologik muammolari, autizm bola va ota-onas munosabatlari tizimi, reabilitatsion tadbirlar ahaliyati va

oilaviy psixoterapevtik yordam ko'rsatishning samaradorligi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Insonning muloqoti va uning kommunikativ qobiliyatlarini o'rganish psixologiyaning turli sohalarida amalga oshirildi. Nazariy darajada strukturaviy komponentlar va ularning shaxshing boshqa jihatlari bilan aloqasini G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev, G.S.Vasilyev, E.A.Golubeva, M.S.Kagan, A.A.Kidron, A.A.Leontiyev, A.N.Leontiyev va boshqalar ko'rib chiqishgan. Ta'lim psixologiyasida turli yoshdagi bolalar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha E.E.Dmitrieva, N.V.Klyueva, M.I.Lisina, A.G.Ruzskaya va boshqalar nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishdi. Muloqotni o'rganish masalasi qisman maxsus psixologiyada TA. Vlasova, V.I.Lubovskiy, U.V.Uliyenkova kabi olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Nutq, ko'rish, eshitish, miya falaji, kognitiv nuqsonlari bo'lgan bolalarda muloqot va muloqot ko'nigmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan E.E.Dmitriyeva, I.V.Kornilova, D.S.Kazarova, E.Yu.Medvedeva, T.A.Shalyugina va boshqa olimlarning qator ilmiy ishlari mavjud. Faqat bitta olim A.V.Xaustov 2005-yil erta bolalik autizmi bo'lgan bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot o'kazishga muvaffaq bo'ldi. ASD bilan og'igan maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish, kundalik ko'nigmalar, kognitiv va o'yin faoliyatini tashkil etish, shuningdek, autizmli bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga bag'ishlangan M.Yu.Vedenina, S.A.Morozov, J.L.C.Nuriyeva, O.S.Nikolskaya, A.V.How-stov kabi olimlarning bir qator ilmiy va amaliy tadqiqotlari bo'lib va shu bilan birga, ilmiy ya uslubiy psixologik-pedagogik adabiyotlarda ASD bilan kasallangan maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish va diagnostika qilish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar yetishmasligi mavjud. O'rganishlar natijasida Rossiyada pedagogika fanlari nomzodi Xaustov, Artur Valeriyevich tomonidan "Bolalik autizmi bo'lgan bolalarda muloqot ko'nigmalarini shakllantirish" (2005-yil), psixologiya fanlari nomzodi Probylova, Vera Stepanovnalarning "Erta bolalik autizmi bo'lgan besh yoshli bolalarning o'zini o'zi anglash xususiyatlari" (2008-yil), psixologiya fanlari nomzodi Solomko, Alla Dmitrievnalarning "Jismoniy tarbiya orqali autizm spektrining buzilishi bo'lgan 5-7 yoshli bolalarda o'yin ko'nigmalarini va hissiy-idrok sohasini shakllantirish." (2012-yil), pedagogika fanlari nomzodi Kalmykova Natalya Yuryevnalarning "Autizm spektrining buzilishi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish imkoniyatlarini psixodiagnostik farqlash." (2023-yil) kabi ilmiy ishlar qilingani aniqlandi. "Autizm spektrining buzilishi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlari" haqida psixologiya fanlari nomzodi Bessmertnaya Yuliya Vladimirovnaning ilmiy ishi yetakchi faoliyat turi (o'yin) jarayonida ularning kognitiv va kommunikativ sohalari holatining xususiyatlarini hisobga olgan holda, ASD bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan tuzatish-psixologik ish

yo'nalishlarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish bo'lib, bu borada olim qator takliflar va metodlar ishlab chiqqan.

Yurtimizda jahon davlatlariga qaraganda autizm bolalar haqida ilmiy izlanishlar olib borilish foizi judayam past. Mamlakatimiz psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, M.X.Fayziyeva, V.M.Karimova, X.K.Karimov, K.K.Mamedov, Z.T.Nishonova, L.V.Nazirova, G.A.Qurbanova, N.A.Sog'inov, N.N.Salayeva, M.S.Salayeva, R.S.Samarov, S.X.Tadjiyeva, E.G.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, O'.B.Shamsiyev, A.Sh.Shojalilov, O.R.Shamiyeva va boshqalar tomonidan shaxsning rivojlanish xususiyatlari va oila munosabatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Pedagog olimlardan M.Y.Ayupova, Sh.M.Amirsaidova, U.Y.Fayziyeva, M.U.Hamidova, L.R.Mo'minova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh.Nurmuhamedova, M.P.Po'latova, V.S.Raxmonova, Sh.T.Shermuhamedova va boshqalar tomonidan alohida ehtiyoja muhtoj bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

“2 aprel — Butunjahon autizm muammosi haqida ma'lumotlarni tarqatish kuni” doirasida doimiy ravishda tadbirlar o'tkazish orqali autist bolalarga haqiqatdan autizm degan tashxis qo'yilishiga erishdik. Yaqin 4-5 yilgacha bu tashxis qo'yilmasdi. Umumiyligi aqli zaiflik deb berilardi yoki autizm bilan yondosh kelgan boshqa surunkali xastalik ko'rsatilardi. Bu esa hisobotlarda noto'g'ri ko'rsatkichlarning ketishiga olib kelgan. O'z-o'zidan davolanishga e'tibor ham yetarlicha bo'limgan, boladagi holat mакtabga qabuldan oldingi tibbiy ko'rlik chog'ida ayon bo'lgan.

Sog'lijni saqlash vazirligi Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi Nilufar Mansurovaning so'zlariga ko'ra, hududlardagi ko'ptarmoqli markaziy poliklinikalarda logoped-psixonevrolog mutaxassislari bo'lib, ular autizm tashxisi qo'yilgan bolalar bilan muayyan tarzda shug'ullanadi.

Shuningdek, «Sog'lijni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5590-sonli Prezident farmoni ijrosini ta'minlash bo'yicha vazirlikning chora-tadbirlar rejasiga surunkali kasalliklari va nogironligi mavjud bo'lgan bolalar uchun hududiy reabilitatsiya markazlarini tashkil etish orqali bolalarni sog'lomlashtirish va reabilitatsiya qilishni kengaytirish masalasi kiritilgan.

Ayni paytda esa autizmni davolash bo'yicha real harakatlar Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi (RBIMM) va xususiy markazlar tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Bosh binosi poytaxtda joylashgan markazning Samarqand va Fang'ona viloyatlarida filiallari mavjud.

Xulosa qilib o'rnida shuni aytish mumkinki, butun dunyoda, hususan yurtimizda bu kasallik bilan og'rigan bolalarga e'tibor oldingidan ko'ra ancha oshgan. Asosan olimlar kasallikni kelib chiqish sabablari, turlari, ularni ruhiyatini o'rganish, ular bilan komunikatsiya o'rnatish borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ammo autizm kasalligining ko'p jixatlari: xotirasi, tafakkuri, idroki, o'ziga hos bo'lgan hususiyatlari, yashirin qobiliyatları va ularni yuzaga chiqarish metodlarini, shu kasallik bilan og'rigan bolalarning ota-onalari bilan alohida

ishlash mexanizmlari kabi bir qator muammolarni o'rganish va bu orqali bunday bolalar hayotida ijobjiy o'zgarishlarga erishish, ularning ota – onalarini qiyinayotgan muammolarga yechim topish hali hanuz dolzarb masala sifatida qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Q'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi», 2023-yil 1-may
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» Qonuni 2020-yil 23-sentyabr O'RQ-637-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-sonli Farmoni.
4. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 8.1 (2020).
5. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching subjects in higher education on the basis of innovative technologies." *Science Promotion* 1.2 (2023): 98-104.
6. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.
7. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching of sciences in higher education on the basis of innovative technologies." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 141-147.
8. Raximovna, Teshaboeva Feruza. "O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 873-875.
9. Feruza, Teshaboyeva. "INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 546-548.
10. Rahimovma, Teshaboeva Feruza, and Usmonjonova Saodatkhan Mirzakhamdamovna. "WAYS TO IMPROVE SPEECH ABILITIES OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DISABILITIES." (2023).
11. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza, and Sadiqova Munavvarkhan. "PECULIARITIES OF THINKING OF CHILDREN WITH SPEECH DEFECTS." (2023).
12. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabau. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
13. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.

14. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
15. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
16. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
17. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
18. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea 3.03* (2023): 63-67.
19. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhan. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
20. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." *EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION* (2020): 29.
21. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFICIT." *Confrencea 11.11* (2023): 21-25.
22. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." *Confrencea 11.11* (2023): 17-20.
23. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinakan, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 148-154.
24. Dildora, Madinahan Makhmudova Musayeva. "THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL

INSTITUTION ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES." *Confrencea* 12.2 (2023): 170-178.

25. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи түлиқ ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутқа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 12.2 (2023): 179-186.
26. Ramazanovna G. D. ROLE OF INNOVATION IN THE SPHERE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Archive of Conferences. – 2021. – C. 6-9.
27. Ramazanovna G. D. IMPROVEMENT OF POSITIONS IN INTERNATIONAL RATINGS AS A RESULT OF EFFECTIVE MANAGEMENT OF INNOVATIVE PROCESSES //Archive of Conferences. – 2020. – T. 10. – №. 1. – C. 183-185.

